

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
“IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA” FAKULTETI

13.09.2024 yil

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

Fakultet dekani: Umarov Elshod

Qatnashdilar:

Xalqaro Nordik universiteti rektori Sh. I. Mustafakulov

Kafedra mudirlari: Qodirov Najmiddin
Xasan Sabirov

Dekan o‘rinbosari: J.Xoshimov
Z.Uralbayev
X.Mamajanova

Yoshlar ittifoqi yetakchisi: Y.Rahimberdiyeva

**Xalqaro Nordik universiteti rektori Sh.I.Mustafakulov, “Iqtisodiyot va
pedagogika fakulteti” dekanati xodimlari va universitet talaba-yoshlari**

BAYONNOMASI

Bugun Xalqaro Nordik universiteti rektori universitet talaba yoshlari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuv ochiq, samimiy ruhda tashkil etildi. Unda universitet rektori bilan birgalikda “Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti” dekani muovini J. Xoshimov, tyutor tarbiyachi-pedagoglar jamoasi hamda universitet yoshlar ittifoqi yetakchisi Y. Rahimberdiyeva qatnashib, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha savollar va murojaatlarga javob berdilar.

Universitet rektori Sherzod Mustafakulov hozirgi o‘quv jarayoni haqida qisqacha axborot berdi. Shundan so‘ng uchrashuvning asosiy qismi boshlandi. Unda talabalar turli yo‘nalishlar va sohalar bo‘yicha muammolarni rahbarlar e’tiboriga havola etdilar, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, o‘quv jarayonini yaxshilash bo‘yicha takliflarini o‘rtaga tashladilar.

Uchrashuvda bir qator muammolar o'z yechimini ham topdi, ko'plarini hal etish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi. Masalan, kutubxonada mavjud o'quv adabiyotlarining elektron shaklini



yuklab olish imkoniyatini yaratish, talaba yoshlarning darsdan tashqari vaqtlarini unumli tashkil qilish maqsadida universitetda klublar faoliyatini yo'lga qo'yish, Kompyuter injiniringi yo'nalishi talabalari olayotgan bilimlarini mustahkamlashi va o'z ustilarida doimiy ishlashi uchun zamonaviy kompyuterlar laboratoriyasi tashkil etish kabi ko'plab takliflar to'liq qabul qilinib, ertangi ish kunidan boshlab ularni amalga oshirish bo'yicha mas'ullarga ko'rsatma berildi.



Shuningdek, universitet yoshlar yetakchisi yoshlar muammolarini doimiy o'rganishi, muammolar yuzasidan murojaat qilishlari mumkin ekanini bildirdi.

Uchrashuv yakunida Sherzod Mustafakulov barcha talabalarni yangi 2024-2025-o'quv yili boshlanishi bilan samimiy qutlab, ularning o'qish va sportdagi faoliyatiga ulkan zafarlar tilab qoldi, universitetda an'anaga aylangan rektor va talabalar uchrashuvi doimiy tashkil etilishi, agar biror talabaning shaxsiy murojaati bo'lsa, qabul qilish uchun eshigi ochiq ekanini bildirdi. Shuningdek, dekanatning doimiy asosda ishlovchi murojaatlar uchun boti @XNUDEkanat_bot ishlab turgani, murojaatlar bo'lsa, bot orqali ham yuborish mumkinligini aytib o'tildi.